

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAHSUS TALIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEHNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH
(MA'RUZA MATNLARI)**

Toshkent - 2013

MUNDARIJA

1. Hisoblash matematikasi fani. Hisoblash usullari. Taq'ribiiy Hisoblashlar. Hisoblash hatoliklari	4
2. Ko'phad q'iymatini Gornor shemasi bilan Hisoblash. Algoritmlar. Taq'ribiy hisoblashlarda iteratsion tsikllardan foydalanish (q'atorlarni yig'indisini hisoblash). Algoritmlar.....	19
3. Algebraik va transtsendent tenglamalar echimlarini taq'ribiy usullar bilan topish. Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usuli. Algoritmlar.....	23
4. Vatarlar usuli. Urinmalar (Nyuton) usuli. Algoritmlar.....	30
5. Kombinatsiyalashtirilgan va iteratsiya usullari . Algoritmlar.....	36
6. Chiziq'li tenglamalar sistemasi echimlarini topishning Kramer usuli. Algoritmlar.....	39
7. Gauss usuli. Algoritmlar.....	48
8. Sonli differentsiallashtirish usullari. Differentsial tenglamalarni sonli usullar bilan taq'ribiy echimlarini topish.....	55
9. Birinchi tartibli oddiy differentsial tenglamalarni Eyler usuli bilan echimini topish. Algoritmlar.....	59
10. Runge-Kutta usuli. Koshi masalasi echimini topish. Algoritmlar.....	64
11. Integrallarni hisoblashning sonli usullari. To'g'rito'rtburchak usuli. Algoritmlar.....	68
12. Trapetsiya usuli. Algoritmlar.....	72
13. Simpson usuli. Algoritmlar.....	75
14. Interpolyatsiya masalalari. Lagranj interpolyatsiya ko'phadi. Gauss interpolyatsiya ko'phadi. Algoritmlar.....	79
15. Tajriba natijalarini q'ayta ishlash. Eng kichik kvadratlar usuli.....	86
16. Regressiya tahlili. Asosiy tushunchalar.....	93
17. Juftlik korrelyatsiya. Korrelyatsiya koeffitsienti. Algoritmlar.....	
18. Ko'p faktorlik korrelyatsiya.....	108
FOYDALANILGAN ADABIËTLAR.....	118

Oziq'-ovq'at mahsulotlari texnologiyalari va kimyo sanoati sohasida ho sil bo'ladigan ko'p masalalari ma'lum matematik model bilan ifodalalanadilar. Bu modellardagi tenglamalar esa har doim ham aniq'echimga ega bo'lmaydilar. Shunday hollatlarda hisoblash matematikasi fanining hisoblash usullari e'ldamida, turli hil amaliy masalalarning modellari bo'lmish matematik masalalarni taq'ribiy echimlarini topish mumkin bo'ladi va mavjud bo'lgan algoritmlar asosida kompyuter dasturlarini tuzib natijalar olish va vsoblash esperimentlarini o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Ushbu ma'ruza matnlari Oziq'-ovq'at mahsulotlari texnologiyalari fakulteti "Avomatlashtirish va boshq'aruv" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil o'la' tgan talabalarga mo'ljallangan.

Muallif: T.F.N. dotsent Imomov N.K.

Mas'ul muharrir: T.F.N. dotsent Fayzullaev S.F.

Taq'rizchilar:

Ma'ruza matnlari "Informatika, avtomatlashtirish va boshq'aruV" kafedrası majlisida ko'rib chiq'ildi va tasdiq'lashga tavsiya q'ilindi.

"..." 2013 yil - son ba'ennoma.

"Oziq'-ovq'at mahsulotlari texnologiyasi" fakultetining kengaytirilgan ilmiy-uslubiy kengashining "... " 2013 yil - son ba'ennomasi.

Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-uslubiy kengashida muhokama q'ilindi va kutubhonaga topshirish uchun tavsiya q'ilindi.

"....." 2013 yil - son ba'ennoma.

HISOBLASH USULLARINI ALGORITMLASH

MA'RUZA - 1

Hisoblash matematikasi fani. Taq'ribiy Hisoblashlar. Hisoblash hatoliklari

Kirish

Hisoblash matematikasi (hisoblash usullari) fani turli hil amaliy masalalarning modellari bo'lmish matematik masalalarni taq'ribiy echish uchun sonli usullar yaratish bilan shug'ullanadi.

Amaliy masala bu biror voq'ea, jarayondir. Masalaning matematik modeli bu amaliy masalani matematik munosabatlar bilan bayon etib, tipik matematik masala sinfiga keltirishdir. Sinfidan echimi aniq' masala tanlanib, masalani echish uchun algoritm tanlanadi. Algoritm asosida kompyuter uchun dastur tuziladi. Dastur kompyuterda ishga tushirilib natija olinadi. Natija mavjud echim yoki ma'lumotlar bilan solishtiriladi, ular mos bo'lsa algoritm ham model ham q'anoatlanarli deb topiladi. Aks holda amaliy masala yana tekshirilib modelga tuzatishlar kiritiladi va hokazo. Bu jarayon echim etarli aniq'lik bilan topilguncha davom etadi.

Hisoblash eksperimenti amaliy masalani echishda nazariy matematika, hisoblash usullari, algoritmlar nazariyasi, dasturlash, echimning o'rnini yaq'q'ol tasvirlaydi.

Hisoblash matematikasi fani.

Matematik masalani echishda turli hil usullar ishlatilishi mumkin. Agar mumkin bo'lsa aniq' usullar, mumkin bo'lmasa taq'ribiy usullar ishlatiladi. Sonli usullar (hisoblash usullari) masala echishning eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Sodda hisoblash usullaridan biz ko'p foydalanamiz. Masalan, kvadrat ildiz chiq'arish. Shunday masalalar borki, murakkab hisoblashlarni talab q'iladi: ob-havoni bashorat q'ilish, kosmik kema harakati, ko'p yillik rejalarni yaratish . Ko'p hollarda hisoblashlarni tez bajarishga to'g'ri keladi. Masalan, sutkalik ob-haVo bashorati bir necha soatda hisoblanishi kerak, kosmik kema

traektoriyasi bir necha minutda hisoblanishi kerak va hokazo. Zamonaviy hisoblash usullari va EHM lar bunday imkoniyatlarga ega. Hisoblash usullari masalani echish uchun algoritm beradi. Algoritm asosida kompyuter uchun dastur tuziladi.

Algoritmni asoslash masalani to'g'ri echish uchun asos hisoblanadi. Lekin algoritmning bahosini amaliy hisoblashlar bajargandan keyin beriladi. Bir narsaga e'tibor berish kerak. Kompyuter bilan ishlayotgan foydalanuvchi o'z algoritmi, dasturini sinchiklab tekshirib chiq'ishi kerak. Aks holda Piter aytgandek: "Kompyuter hisoblovchining nochorligini ko'p marta oshiradi", degan hodisa ro'y berishi mumkin.

Murakkab masalalarni echish uchun, algoritmlar yaratish bilan shug'ullanuvchi matematikaning bo'limini amaliy matematika deyiladi. Amaliy matematikaning asosiy masalasi echimni berilgan aniq'lik bilan topishdir. Klassik matematika echimning mavjudligi, yagonaligi, hossalarni aniq'lash bilan shug'ullanadi

Taq'ribiy hisoblashlar **Hatoliklar nazariyasi. Absolyut va nisbiy hatolik.**

Taq'ribiy sonlar. Amaliy hisobda q'atnashuvchi sonlar u yoki bu kattaliklarning taq'ribiy q'iymatlari bo'lishi mumkin. Bunda kattalikning aniq' q'iymati – aniq' son va taq'ribiy q'iymati – taq'ribiy son deb ataladi. Faraz qilamiz A aniq' son (kattalikning aniq' q'iymati) va a taq'ribiy son (kattalikning taq'ribiy q'iymati) berilgan bo'lsin.

Ta'rif 1. a son taq'ribiy son deb aytiladiki, agarda A aniq sondan miqdoran hisoblashda farq'lansa. Agar $a < A$ bulsa, a son kami bilan A ga taq'ribiy son, agar $a > A$ bulsa, ortiq bilan taq'ribiy son deyiladi.

Ta'rif 2. a taq'ribiy son hatoligi deb A soni bilan uning taq'ribiy q'iymati a orasidagi farkiga aytiladi va quyidagicha belgilanadi:

$$\Delta a = (A - a); \quad \delta a = \frac{A - a}{A}$$

Agar $A > a$ bo'lsa, u holda hatolik musbat: $\Delta a > 0$, agar $A < a$ bo'lsa, hatolik manfiy ya'ni $\Delta a < 0$ bo'ladi. A anik sonni topish uchun takribiy songa uning hatoligini q'o'shish kerak.

$$A = a + \Delta a$$

Ta'rif – 3. Hatolikning absolyut qiymatiga absolyut hatolik deb aytiladi.

$$\Delta = |A - a| \quad (1)$$

Bu erda ikkita hol farqlanadi.

- 1) A aniq son berilganda absolyut hatolik (1) formula yordamida oson topiladi.
- 2) A aniq son ko'pgina amaliy masalalarda noma'lum bo'ladi va biz (1) formula yordamida absolyut hatolikni aniqlay olmaymiz. Shu sababli chegaraviy absolyut hatolik tushunchasi kiritiladi.

Ta'rif – 4. Chgaravy absolyut hatolik deb absolyut hatolikdan kichik bulmagan, unga yaqin bulgan kichik musbat songa aytiladi Va $\Delta = |A - a| \leq \Delta_a$ kabi belgilanadi.

Bu tengsizlikdan A anik sonning chegarasini topish mumkin.

$$a - \Delta_a \leq A \leq a + \Delta_a$$

Ba'zi hollarda kiskalik uchun bu tengsizlikda $A = a \pm \Delta_a$ yoziladi.

Misol – 1. $a=3,14$ taqribiy sonning chegaraViy absolyut Hatosini toping.

Echilishi: quyidagilarga egamiz: $3,14 < \pi < 3,15$ $|a - \pi| < 0.01$ bundan $\Delta_a = 0.001$ ni olish mumkin. yoki bo'lmasa $3,14 < \pi < 3,142$ bo'lgan holda aniqroq hatolik

$$\Delta_a = 0.002$$

Ko'pgina amaliy masalalarda o'lchashlarning absolyut hatosi bir hil bo'lgani bilan ularni bir hil aniqliqda o'lchangan deb bo'lmaydi.

Masalan: Ikkita sterjenning uzunligini hisoblaganda olingan natijalar $l_1 = 100,8 \text{ sm} \pm 0,1 \text{ sm}$ Va $l_2 = 5,2 \text{ sm} \pm 0,1 \text{ sm}$ bo'ladi, lekin bularning chegaraviy absolyut hatoligi ustma-ust tushsada, birinchisining hatoligi ikkinchisidan yukori. Berilgan hatoliklarni anik hisoblashda absolyut hatolik yordamida yana bitta muhim tushuncha kiritamiz. Bu nisbiy hatolik tuunchasidir.

Ta’rif – 6. a takribiy sonning nisbiy hatoligi deb bir birlikka to’g’ri keluvchi absolyut hatoligiga aytiladi. $\delta = \frac{\Delta}{|A|}$ A anik son ($A \neq 0$).

Bu erdan $\Delta = |A|\delta$. Bu erda ham absolyut hatoligi kabi chegaraviy nisbiy hatolik tushunchasi kiritiladi.

Ta’rif – 7. a takribiy sonning chegaraviy nisbiy hatoligi deb sonning nisbiy hatoligidan kam bo’lmagan va unga yaqin barcha sonlarga aytiladi.

Bundan ko’rinadiki $\delta \leq \delta_a$ δ_a – chegaraviy nisbiy hatolik $\frac{\Delta}{|A|} \leq \delta_a$
bundan $\Delta \leq |A|\delta_a$

Bundan foydalnib, a sonning chegaraviy absolyut hatoligi sifatida $\Delta_a = |A|\delta_a$ ni kabul qilish mumkin.

Amaliy masalalarda $A \approx a$ olinib, yuqoridagi formula o’rnida odatda $\Delta_a = |a|\delta_a$ kullaniladi va chegaraviy nisbiy hatolikni bilib turib, aniq sonning chegarasini topishimiz mumkin.

Anik son $a(1 - \delta_a)$ Va $a(1 + \delta_a)$ sonlar orasida yotadi. Bu shartni kuyidagicha yozish mumkin. $A = a(1 \pm \delta_a)$ a – takribiy son, A - anik son va Δ_a – a takribiy sonning chegaraviy absolyut hatoligi bo’lsin. Kuyidagicha tanlab olamiz: $A > 0$, $a > 0$ Va $\Delta_a < a$ bo’lsin. U holda $\delta = \frac{\Delta}{A} \leq \frac{\Delta_a}{a - \Delta_a}$ bundan

kurinadiki, a sonning chegaraviy nisbiy hatoligi sifatida $\delta_a = \frac{\Delta_a}{a - \Delta_a}$ sonni olish mumkin. Bu orkali $\Delta = A\delta \leq (a + \Delta)\delta_a$ bo’lib, bundan $\Delta_a = \frac{a\delta_a}{1 - \delta_a}$ kelib chikadi.

Agar odatda $\Delta_a \leq a$ Va $\delta_a \leq 1$ bo’lsa, u holda quyidagicha $\delta_a \approx \frac{\Delta_a}{a}$, $\Delta_a \approx a\delta_a$ larni qabul qilish mumkin.

Misol : $\sqrt{10} \approx 3,16$ berilgan bo’lsin. Ma’lumki $3,16 < \sqrt{10} < 3,17$, demak absolyut hatolik $\Delta_a = 0,01$. Lekin aslida $3,16 < \sqrt{10} < 3,16228$ ekanligini hisobga

olsak, $\Delta_a = 0,00223$ yoki chegaraviy absolyut hatolik $\Delta = 0,003$ ekanligi ma'lum bo'ldi. Endi $\Delta = 0,00228$ deb q'abul q'ilsak, unda $\delta_a = 0,00228 / 3,16$. Bo'lish amalini bajarib, natijani yahlitlab topamiz: $\delta_a = 0,0008$ yoki $\delta_a = 0,08\%$. Nisbiy hatolik odatda % hisobida beriladi.

Misol: Jism o'lchanishida natija: $R = 23,4 \pm 0,2$ bo'ldi. Demak $\Delta_r = 0,2$ Va $\delta_r = 0,2 / 23,4$. Bo'lish natijasini yahlitlab $\delta_r = 0,009$ yoki $\delta_r = 0,9\%$ natijani olish mumkin.

Taq'ribiy sonning o'nli kasrlar ko'rinishdagi ifodasi. Q'iyimatli raq'am. Ishonchli q'iyimatli raq'am.

Ma'lumki, barcha a taqribiy sonlar chekli yoki cheksiz o'nli kasrlar shaklida ifodalanadi.

$$a = \alpha_m 10^m + \alpha_{m-1} 10^{m-1} + \alpha_{m-2} 10^{m-2} + \dots + \alpha_{m-n+1} 10^{m-n+1} + \dots \quad (1)$$

bu erda α_i – a takribiy sonning raqami hamda birinchi raqam $\alpha_m \neq 0$; m – qandaydir butun son.

Masalan: $3141,59\dots = 3 \cdot 10^3 + 1 \cdot 10^2 + 4 \cdot 10^1 + 1 \cdot 10^0 + 5 \cdot 10^{-1} + 9 \cdot 10^{-2} + \dots$

a taqribiy sonning yuqoridagi qo'rinishda ifodalangan har bir raqami o'zining qiymatiga Ega. Masalan: birinchi o'rinda turgan raqam 10^m ga teng, ikkinchi raqam 10^{m-1} va hokozo. Amaliy masalalarda takribiy sonlar bilan ishlaganda ko'pchilik hollarda chekli unli kasrlar bilan ifodalangan sonlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Masalan:

$$b = b_m 10^m + b_{m-1} 10^{m-1} + \dots + b_{m-n+1} 10^{m-n+1}, \quad (b_m \neq 0) \quad (2)$$

Barcha b_i rakamlar b takribiy sonning kiymatli rakami Hisoblanadi. Bunda bularning ba'zilari nolga teng bulib kolishi mumkin. b_m bundan mustasno. b takribiy sonning pozitsion ifodalanishida unli sistemada ayrim hollarda ortikcha nollar sonning boshida yoki ohirida katnashib koladi.

Masalan:

$$b = 7 \cdot 10^{-3} + 0 \cdot 10^{-4} + 1 \cdot 10^{-5} + 0 \cdot 10^{-6} = 0,007010$$

Bunday nollar qiymatli raqam hisoblanmaydi.

Ta’rif – 1.: Taqribiy sonning qiymatli rakami deganda uning unli kasrlar orqali ifodasida sonning boshida yoki ohirida kelgan noldan tashqari barcha raqamlariga aytiladi. Bunda 0 soni ikkita raqam orasida kelsa, qiymatli raqam hisoblanadi.

Masalan: 0,002080 sonida oldingi 3 ta nol qiymatli raqam emas, qolgan 2 ta nol qiymatli raqam hisoblanadi, chunki ulardan biri 2 Va 8 sonlari orasida ikkinchisi esa yozuvning ohirida kelgan. Yozuvning ohirida kelgan bitta nol qiymatli raqam hisoblanadi, chunki u keyingi raqamlarni yahlitlash natijasida hosil buladi.

Endi ishonchli qiymatli raqam tushinchasini kiritamiz.

Ta’rif – 2. : Takribiy sonning oldingi n ta rakami ishonchli hisoblanadi, agarda uning absolyut hatosi n qiymatli raqamning yarmidan oshmasa.

Ma’lumki, n -qiymatli raqam taqribiy sonni unli kasrlar ko’rinishida yozishda Hosil qilingan. a taqribiy son aniq son bulsa,

$$\Delta = |A - a| \leq \frac{1}{2} \cdot 10^{m-n+1}$$

Ko’rinishda bo’ladi.

Bu erda oldingi n ta raqam $\alpha_m, \alpha_{m-1}, \alpha_{m-2}, \dots, \alpha_{m-n+1}$ ishonchli qiymatli raqamlar ekani kelib chiqadi.

Masalan: $A = 35,97$ aniq son Va $a = 36,00$ taqribiy son 3 ta ishonchli qiymatli qakami bo’lsa, u quyidagicha

$$|A - a| = 0,03 < \frac{1}{2} \cdot 0,1$$

Matematik jadvalda barcha ko’rsatilgan raqamlar ishonchli qiymatli raqamlardir. " n ta ishonchli qiymatli raqam" terminini faqatgina a taqribiy sonning oldingi n ta ishonchli qiymatli raqami ekanligi tushunilmaydi.

IzoH: Ba’zi hollarda a son A aniq songa n ta ishonchli qiymatli raqami bilan yakinlashadi deyiladi, buning ma’nosi a taqribiy sonning $\Delta = |A - a|$ absolyut hatosi uni o’nli kasrlar ko’rinishida yozgandagi n - qiymatli raqamidan oshmaydi.

Masalan: $A = 412,3567$ ga $a = 412,356$ 6 ta ishonchli qiymatli raqami bilan yaqinlashadi deyiladi, keng ma'noda ya'ni

$$\Delta = 0,0007 < 1 \cdot 10^{-3} \text{ bo'lsa.}$$

Sonlarni yahlitlash.

a taqribiy sonning aniq songa yaqinlashishida o'nli kasrlar yordamida yozilishi ko'rsatiladi. Ko'p hollarda sonning yahlitlashishi kuzatiladi. Buni yahlitlangan sonni a_1 orqali belgilaymiz. Bu oldingi sondan qiymatli raqamlarning kamligi bilan farqlanadi. a_1 sonni shunday tanlaymizki, yahlitlash hatosi $|a_1 - a|$ eng kichik bulsin.

Yahlitlash qoidalari:

Sonni n qiymatli raqamgacha yahlitlashda ma'lum koidalarga asoslanib, uning raqami o'ngdan olib tashlanadi. Bu qoidalar quyidagicha

- 1) agar sonning yahlitlash talab kilingan raqamlari 5 dan kichik bo'lsa, u holda bu raqamlar uzgarishsiz tashlab yuboriladi.
- 2) agar 5 dan katta bo'lsa, u holda ohirigi raqamga bir ko'shiladi.
- 3) agar 5 ga teng bo'lsa va bu raqamlar orasida nollar bo'lsa uzgartirilmasdan qoldiriladi. Agar u toq bo'lsa, bir birlik ko'shiladi, juft bo'lsa uzgarishsiz qoladi.

Bu yahlitlash qoidasi hisoblanadi.

Masalan: $\pi \approx 3,1415926535...$ sonni be shinchi, to'rtinchi va uchinchi qiymatli raqamlargacha yahlitlash natijasida quyidagi natijalarga ega bo'lamiz.

$$3,1416 \quad 3,142 \quad 3,14$$

va absolyut hatolari kamida

$$\frac{1}{2} \cdot 10^{-4}; \quad \frac{1}{2} \cdot 10^{-3}; \quad \frac{1}{2} \cdot 10^{-2}$$

a taqribiy sonning aniqligi uning qiymatli raqamlarining soniga bogliq emas, bu ishonchli qiymatlarning soniga bogliq buladi. Ba'zi hollarda taqribiy son ortiqcha ishonchsiz qiymatli raqamlarni o'nda saqlaydi, bu yahlitlashga olib keladi. Ohirgi natija bittadan ko'p ortiqcha qiymatli raqamlarga ega bo'lmasligi kerak.

Bu hollarda raqam mavhum deb aytiladi. Ba'zi hollarda juda ko'p yoki cheksiz ko'p qiymatli raqamga ega bo'lgan sonlarni yahlitlashga to'g'ri keladi. A aniq son n -qiymatli raqamgacha to'ldirib yahlitlanadi.

Bunday hollarda a taqribiy son n ta qiymatli raqamga ega bo'lib qoladi (tor ma'noda).

Agar a taqribiy son n ta qiymatli raqamga ega bo'lsa, uni n ta ishonchli qiymatli raqamgacha yahlitlab olingan yangi takribiy son n ta ishonchli qiymatli raqamga keng ma'noda ega bo'ladi. Bu holatda quyidagi tengsizlik o'rinli Hisoblanadi, ya'ni chegaraviy absolyut hato a ning absolyut hatosi bilan yahlitlashning absolyut hatosining yigindisidan kichik yoki teng.

$$|A - a_1| \leq |A - a| + |a - a_1|$$

Hisoblash hatoliklari. Yig'indining hatosi.

TEOREMA 1: Bir necha taqribiy sonlarning algebraik yigindisining absolyut hatosi bu sonlarning absolyut hatoliklari yigindisidan oshmaydi.

Isbot: $x_1, x_2, \dots, x_n$ lar berilgan takribiy sonlar bo'lsin. Bularning algebraik yigindisini qaraymiz.

$$u = \pm x_1 \pm x_2 \pm \dots \pm x_n$$

absolyut hatolari yigindisi esa

$$\Delta u = \pm \Delta x_1 \pm \Delta x_2 \pm \dots \pm \Delta x_n$$

Bundan

$$|\Delta u| = |\Delta x_1| + |\Delta x_2| + \dots + |\Delta x_n| \quad (1)$$

Natija: Algebraik yigindining chegaraviy absolyut hatosi sifatida Har bir qo'shiluvchining absolyut hatolarining yigindisini olish mumkin.

$$\Delta u = \Delta x_1 + \Delta x_2 + \dots + \Delta x_n$$

(2) formuladan ko'rinadiki yigindining chegaraviy absolyut hatosi qo'shiluvchilarning chegaraviy absolyut hatosidan kichik bo'la olmaydi.

Bulardan kelib chiqadiki, aniqlikning qandaydir darajasida ba'zi qo'shiluvchilar aniqlanmay qoladi. Shuning uchun biz shu aniqlanmagan

qo'shiluvchilar hisobiga aniq yigindiga ega bo'lmaymiz. shuning uchun ham amaliy masalalarda taqribiy sonlarni qo'shish uchun qoidalar ishlab chiqilgan.

Qoida: Har hil absolyut aniqlikka ega bo'lgan sonlarni ko'shish uchun, bunda

- 1) Sonning o'nli kasrlar ko'rinishda ifodalab, olish va uni uzgarishsiz qoldirish.
- 2) Keyingi sonlarni shu birinchi son kabi yozib olish hamda bitta yoki ikkita o'nli sonni qoldirib, qolganlarini yahlitlash.
- 3) berilgan sonlarni ko'shib olish, bunda barcha raqamlar uzgarmasdan saqlanadi.
- 4) olingan natijani yana bir hona yahlitlash.

$u = x_1 + x_2 + \dots + x_n$ yigindini yahlitlashda, ya'ni m - chi unli raqamigacha yahitlashda yigindining yahitlashning absolyut htosi hmma vkt

$$\Delta \leq n \cdot \frac{1}{2} \cdot 10^m$$

dan oshmaydi. Yigindini yahitlashning hatosi aniq bo'ladi, agarda ko'shiluvchilarning hatoliklari kichik bulsa.

Misol. Berilgan taqribiy sonlarning yigindisini toping:

0,348; 0,1834; 345,5; 235,2; 11,75; 9,27; 0,0849; 0,0214; 0,000354

Bularning har birining barcha raqamlari ishonchli qiymatli (keng ma'noda)

Echish: 345,4 va 235,2 sonlarni etarlicha kichik aniqlikda bo'lamizki, ularning absolyut Hatosi 0,1 ga yakinlashsin. Kolgan sonlarni 0,01 aniklikgacha yahlitlash orakali kuyidagilarni olamiz.

$$\begin{array}{r} 345,4 \\ 235,2 \\ 11,75 \\ 9,27 \\ 0,35 \\ 0,18 \\ 0,08 \\ 0,02 \\ 0,00 \\ \hline 602,25 \end{array}$$

Olingan natijadan juft sonlarni 0,1 gacha yaHlitlash orkali yigindining takribiy kiymati 602,2 Ekanligini olamiz. natijaning to'la Hatosi Δ 3 ta ko'shiluvchidan iborat bo'ladi.

1) Berilgan sonlar yigindisining chegaraViy Hatosi.

$$\Delta_1 = 10^{-3} + 10^{-4} + 10^{-1} + 10^{-1} + 10^{-2} + 10^{-2} + 10^{-4} + 10^{-4} + 10^{-6} = 0,221301 \leq 0,222$$

2) Qo'shiluvchilar yindisining absolyut hatosi.

$$\Delta_2 = |-0,002 + 0,0034 + 0,0049 + 0,0014 + 0,000354| = 0,008054 < 0,009$$

3) Natijaning ohirgi yahlitlashdagi hatosi.

$$\Delta_3 = 0,050$$

$$\text{Bundan } \Delta = \Delta_1 + \Delta_2 + \Delta_3 \leq 0,222 + 0,009 + 0,050 = 0,281 < 0,3$$

Demak, qaralayotgan yigindi: $602,27 \pm 0,3$

TEOREMA 2: Yigindining chegaraviy nisbiy hatosi qo'shiluvchilarning chegaraviy nisbiy hatosidan oshmaydi.

Isbot. $u = x_1 + x_2 + \dots + x_n$, bu erda $x_i > 0$ ($i = \overline{1, n}$) A_i ($A_i > 0, i = \overline{1, n}$) orkali x_i qo'shiluvchilarning aniq qiymatini va A bilan u yigindining aniq qymatni belgilaymiz

$$A = A_1 + A_2 + A_3 + \dots + A_n$$

U holda chegaravy nisbiy hto sifatida

$$\delta_u = \frac{\Delta_u}{A} = \frac{\Delta x_1 + \Delta x_2 + \dots + \Delta x_n}{A_1 + A_2 + \dots + A_n} \quad (4)$$

$\delta_{x_i} = \frac{\Delta_{x_i}}{A_i}$ ekanligidan $\Delta x_i = \delta_{x_i} \cdot A_i$. Buni (4) formulaga ko'shish orqali

$$\delta_u = \frac{A_1 \delta_{x_1} + A_2 \delta_{x_2} + \dots + A_n \delta_{x_n}}{A_1 + A_2 + \dots + A_n}$$

$\bar{\delta}$ bilan δ_{x_i} nisbiy hatoliklarning eng kattasini belgilaymiz. U holda

$$\delta_u \leq \frac{\bar{\delta}(A_1 + A_2 + \dots + A_n)}{A_1 + A_2 + \dots + A_n} = \bar{\delta}$$

Bundan $\delta_u \leq \bar{\delta}$ Va $\delta_u \leq \max(\delta_{x_1}, \dots, \delta_{x_n})$.

Ayirmaning Hatolari.

Ikkita taqribiy sonning $u = x_1 - x_2$ ayirmasini qaraymiz. yuqoridagi yigindining hatoliklari mavzusidagi (2) formuladan

$$\Delta u = \Delta x_1 + \Delta x_2$$

Ayirmaning chegaraviy absolyut hatosi ayriluvchi va ayiruvchi sonlarning chegaraviy absolyut hatoliklari yigindisiga teng.

Bundan ayirmaning chegaraviy nisbiy hatosi

$$\delta_u = \frac{\Delta x_1 + \Delta x_2}{A} \quad (1)$$

bu erda $A = x_1$ Va x_2 sonlarning aniq absolyut qiymati

IzoH : Agar x_1 Va x_2 takribiy sonlar bir-biriga etarlicha yaqin bo'lib, kichik absolyut hatoliklarga ega hamda A son ham juda kichik bo'lsa, (1) formuladan bu holda chegaraviy nisbiy hato juda katta bo'lishini ko'rish mumkin. Bu erda aniqlikning yo'qolishi ko'rsatiladi.

Masalan: $x_1 = 47,132$ Va $x_2 = 47,111$ sonlarning ayirmasini hisoblaylik. Bu sonlarning Har biri beshta ishonchli qiymatli raqamga ega
 $u = 47,132 - 47,111 = 0,021$

Bu holda u ayirma faqatgina ikkitagina qiymatli raqamga ega buladi. OHirgi raqami mavhum. Ayirmaning chegaraviy absolyut hatosi

$$\Delta_u = 0,0005 + 0,0005 = 0,001$$

Ayirmaning chegaraviy nisbiy hatosi

$$\delta_{x_1} = \frac{0,0005}{47,132} \approx 0,00001$$

$$\delta_{x_2} = \frac{0,0005}{47,111} \approx 0,00001$$

$$\delta_{x_u} = \frac{0,001}{0,021} \approx 0,05$$

Ayirmaning chegaraviy nisbiy hatosi bu erda berilgan sonlarning nisbiy hatoliklaridan tahminan 5000 marta oshib ketadi.

Misol. $u = \sqrt{2,01} - \sqrt{2}$ (2) ayirmani uchta ishonchli qiymatli raqam yordamida toping. **Echish.**

$$\sqrt{2,01} = 1,411774469...$$

$$\sqrt{2} = 1,411421356...$$

Ekanligidan, bunda kutilayotgan natija

$$u = 0,00353 = 3,53 \cdot 10^{-3}$$

Bu natijani (2) ni quyidagi ko'rinishda yozib ham aniqlash mumkin.

$$u = \frac{0,01}{\sqrt{2,01} + \sqrt{2}} \quad \text{Va} \quad \sqrt{2,01} \quad \text{Va} \quad \sqrt{2} \quad \text{ildizlarni uchta ishonchli qiymatli raqami bilan}$$

olamiz. Hakikatan ham

$$u = \frac{0,01}{1,42 + 1,41} = \frac{0,01}{2,83} = 10^{-2} \cdot 3,53 \cdot 10^{-1} = 3,53 \cdot 10^{-3} = 3,53 \cdot 10^{-3}$$

Ko'paytmaning hatoliklari.

Teorema: Bir necha taqribiy sonlarning ko'paytmasining nisbiy hatosi noldan farqli hamda bu sonlar nisbiy hatolarining yigindisidan oshmaydi. **Isbot:**

$$u = x_1 \cdot x_2 \cdot \dots \cdot x_n$$

Umumiylikka hilof qilmagan holda $x_1, \dots, x_n$ sonlar noldan farkli hamda

$$\ln u = \ln x_1 + \ln x_2 + \dots + \ln x_n$$

Bu erda

$$\Delta \ln x \approx d \ln x = \frac{\Delta x_n}{x}$$

taqribiy formulani qo'llash bilan

$$\frac{\Delta u}{u} = \frac{\Delta x_1}{x_1} + \frac{\Delta x_2}{x_2} + \dots + \frac{\Delta x_n}{x_n}$$

Ohirgi ifodani absolyut qiymatlarini baholab, quyidagiga ega bo'lamiz

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| \leq \left| \frac{\Delta x_1}{x_1} \right| + \left| \frac{\Delta x_2}{x_2} \right| + \dots + \left| \frac{\Delta x_n}{x_n} \right|$$

Agar $A_i (i = \overline{1, n})$ x_i larning aniq qiymati bo'lsa Va $|x_i|$ x_i dan etarlicha katta

$$\text{taqribiy hisoblash orqali} \quad \left| \frac{\Delta x_i}{x_i} \right| \approx \left| \frac{\Delta x_i}{A_i} \right| = \delta_i$$

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| = \delta$$

Bu erda $\delta_i - x_i$ ko'paytuvchilarning nisbiy hatoliklari, δ ko'paytmaning nisbiy hatoligi.

Bundan,
$$\delta \leq \delta_1 + \delta_2 + \dots + \delta_n \quad (1)$$

kelib chiqadi. (1) formula to'g'ri bo'ladi, agar x_i ko'paytuvchilar har hil bo'lsa.

Natija: Ko'paytmaning chegaraviy nisbiy hatosi ko'paytuvchilar chegaraviy nisbiy hatoliklari yigindisiga teng.

$$\delta_u = \delta_{x_1} + \delta_{x_2} + \dots + \delta_{x_n} \quad (2)$$

Agar u ning barcha ko'paytuvchilari etarlicha aniq bo'lsa, u holda (2) formuladan ko'rinadiki, ko'paytmaning chegaraviy nisbiy hatosi bu erda ko'paytuvchilarning chegaraviy nisbiy hatoliklari bilan ustma-ust tushadi va bir hil aniqlikda bo'ladi. Hususiy holda x_1 berilgan bo'lsa,

$\delta_u = \delta_{x_1}$ ga Ega bulamiz.

u ning chegaraviy nisbiy hatosi δ_u ni bilib absolyut hatosini quyidagi formula bilan topamiz.

$$\Delta_u = |u| \delta_u$$

Misol 1: $x_1 = 12,2$ Va $x_2 = 73,56$ takribiy sonlar ko'paytmasini toping. Bularning barcha raqamlari mavhum.

Echish: Δ_{x_1} Va Δ_{x_2}

Bundan

$$\delta_u = \frac{0,05}{12,2} + \frac{0,005}{73,56} = 0,0042$$

Bu erda ko'paytma $u = 897,432$ ham $\Delta_u = u \cdot \delta_u = 897 \cdot 0,004 = 3,6$

Bu erda u faqat ikkita ishonchli qiymatli raqamga ega va natija

$$u = 897 \pm 4$$

Bo'linmaning Hatoligi.

Agar $u = \frac{x}{y}$ bo'lsa, $\ln u = \ln x - \ln y$ va bundan

$$\frac{\Delta u}{u} = \frac{\Delta x}{x} - \frac{\Delta y}{y}, \quad \left| \frac{\Delta u}{u} \right| = \left| \frac{\Delta x}{x} \right| + \left| \frac{\Delta y}{y} \right|$$

Ohirgi formuladan ko'rinadiki, yuqoridagi teorema bo'linma uchun ham urinli ekan.

TEOREMA: Bo'linmaning nisbiy hatosi bulinuvchi va bo'linuvchilarning nisbiy hatolari yigindisidan oshmaydi.

Izoh:

Agar $u = \frac{x}{y}$ bulsa, u holda $\delta_u = \delta_x + \delta_y$

Misol: $u = 25,7 : 3,6$ ning ishonchli raqamlari sonini toping agarda yozilgan bo'linuvchi va buluvchilarning barcha raqamlari ishonchli bo'lsa.

Echish: $\delta_u = \frac{0,05}{25,7} + \frac{0,05}{3,6} = 0,002 + 0,014 = 0,016$

Demak, $u = 7,14$ va $\Delta u = 0,016 \cdot 7,14 = 0,11$. Bu erdan ko'rinadiki, u bo'linma keng ma'noda 2 ta ishonchli qiymat raqamga ega buladi. Demak., ohirgi natija $u = 7,14 \pm 0,11$

Bo'linmaning ishonchli qiymatli raqamlari.

x bulinuvchi y buluvchi kamida m ta ishonchli qiymatli raqamga ega bulsin. Agar α va β birinchi qiymatli raqamlar bulsa, u holda chegaraviy nisbiy hato sifatida quyidagi miqdor olinadi:

$$\delta_u = \frac{1}{2} \left(\frac{1}{\alpha} + \frac{1}{\beta} \right) \left(\frac{1}{10} \right)^{m-1}$$

Bu erdan quyidagi qoidalar ni o'lamiz:

- 1) Agar $\alpha \geq 2$ va $\beta \geq 2$ bo'lsa, u holda u bo'linma kamida $m-1$ ta ishonchli raqamlarga ega bo'ladi.
- 2) $\alpha = 1$ yoki $\beta = 1$ bo'lsa, u holda u aynan $m-2$ ta ishonchli raqamga ega bo'ladi.

Darajaning nisbiy hatosi.

$u = x^m$ (m natural son) bo'lsin, u holda $\ln u = m \ln x$, bundan

$$\left| \frac{\Delta u}{u} \right| = m \left| \frac{\Delta x}{x} \right|$$

Bu erdan ko'rinadiki $\delta_u = m\delta_x$

Demak, m – chi darajali sonning chegaraviy nisbiy hatosi sonning uzining chegaraviy nisbiy hatosidan m marta katta bo'ladi.

Ildizning nisbiy hatosi.

$u = \sqrt[m]{x}$ bulsin. U holda $u^m = x$ buladi. Bundan $\delta_u = \frac{1}{m}\delta_x$ m – chi darajali ildizning ostidagi sonning chegaraviy nisbiy hatosidan m marta kichik bo'ladi.

Misol: a kvadratning chegaraviy nisbiy hatosini uning tomoni nechta ishonchli qiymatli raqam bilan aniqlanishini toping, agarda uning yuzasi $S=12,34$ bo'lsa (0,01 aniqlikda).

Echish: $a = \sqrt{S} = 3,5128\dots$ bo'lsin.

$$\delta_s = \frac{0,01}{12,33} \approx 0,0008 \text{ bo'lsa, } \delta_a = \frac{1}{2} - \delta_s = 0,0004 \text{ ekanligidan}$$

$$\Delta_a = 3,5128 \cdot 0,0004 = 1,4 \cdot 10^{-3}$$

Bundan a son 4 ta ishonchli qiymatli raqamlarga ega buladi Va $a = 3,513$.

Tayanch so'zlar Va iboralar

Hisoblash matematikasi, taq'ribiy son, aniq' son, taq'ribiy hisoblash, hatolik, o'lchash hatoligi, hisoblash hatoligi, absolyut hatolik, nisbiy hatolik, yig'indi hatoligi, ayirma hatoligi, ko'paytma hatoligi, bo'linma hatoligi, daraja hatoligi.

Nazorat savollari

1. Hisoblash matematikasi fani haq'ida tushuncha bering
2. Taq'ribiy hisoblash iborasiga ta'rif bering
3. Hatoliklar. Hisoblash hatoligi va o'lchash hatoligi
4. Absolyut hatolik va nisbiy hatolik
5. Yahlitlash q'oidalari

MA'RUZA – 2

Ko'pHad q'iymatini Gorner sHemasi bilan Hisoblash. Algoritmlar. Taq'ribiy Hisoblashlarda iteratsion tsikllardan foydalanish (q'atorlarni yig'indisini Hisoblash). Algoritmlar

Ko'pHadlar berilishi. Iteratsion Hisoblash jarayoni.
Ko'pHadlarni Hisoblashni Gorner sHemasi.
Gorner sHemasini algoritmi Va dastur kodi

Ko'pHad q'iymatini Gorner sHemasi bilan Hisoblash.

n – darajali polinom berilgan bo'lsin

$$R(H) = a_0 X^n + a_1 X^{n-1} + \dots + a_{n-1} X + a_n \quad (1)$$

polinomning a_k koeffitsientlari haq'iq'iy bo'lsin ($k= 0,1,2, \dots, n$). Masala q'o'yilishi q'uyidagdan iboratdir: $H = \xi$ nuq'tada polinom q'iymatini topish kerak. ya'ni :

$$R(\xi) = a_0 \xi^n + a_1 \xi^{n-1} + \dots + a_{n-1} \xi + a_n \quad (2)$$

$R(\xi)$ sonini topish jarayonini q'uyidagicha keltiramiz, (2) – formulani q'uidagi holatga keltiramiz:

$$R(\xi) = (\dots(((a_0 \xi + a_1) \xi + a_2) \xi + a_3) \xi + \dots + a_{n-1}) \xi + a_n)$$

Bu tenglikdan ketma ket hisoblab :

$$\begin{aligned} b_0 &= a_0 \\ b_1 &= a_1 + b_0 \xi \\ b_2 &= a_2 + b_1 \xi \\ b_3 &= a_3 + b_2 \xi \\ b_4 &= a_4 + b_3 \xi \\ &\dots\dots\dots \\ b_n &= a_n + b_{n-1} \xi \end{aligned} \quad (3)$$

$b_n = R(\xi)$ larni topamiz.

$b_0 = a_0, b_1, \dots, b_{n-1}$ sonlar, $R(H)$ polinomni $H - \xi$ bir hadga bo'lish natijasida hosil bo'lgan bo'linma $Q(x)$ polinomning koeffitsientlari ekanligini ko'rsatamiz. Faraz q'ilamizki

$$Q(x) = \beta_0 x^{n-1} + \beta_1 x^{n-2} + \dots + \beta_{n-1} \quad (4)$$

va

$$R(H) = Q(x)(H - \xi) + \beta_n \quad (5)$$

Bezu teoremasi asosida bo'lish natijasida hosil bo'ladigan q'oldiq'

$\beta_n = R(\xi)$ teng bo'ladi. (4) va (5) – formulalardan q'uidagilarni hosil q'ilamiz:

$$R(H) = (\beta_0 x^{n-1} + \beta_1 x^{n-2} + \dots + \beta_{n-1}) (x - \xi) + \beta_n$$

yoki q'avslarni ochib o'hshash hadlarni keltirib q'uyidagi holatga keltiramiz:

$$R(H) = (\beta_0 x^n + (\beta_1 - \beta_0 \xi) x^{n-1} + (\beta_2 - \beta_1 \xi) x^{n-2} + \dots + (\beta_{n-1} - \beta_{n-2} \xi) x + (\beta_n - \beta_{n-1} \xi))$$

tenglikni o'ng va chap tomonlaridagi H o'zgaruvchini bir hil darajalari oldidagi koeffitsientlarini solishtirib hosil q'ilamiz:

$$\begin{aligned} \beta_0 &= a_0 \\ \beta_1 - \beta_0 \xi &= a_1 \\ \beta_2 - \beta_1 \xi &= a_2 \\ &\dots\dots\dots \\ \beta_{n-1} - \beta_{n-2} \xi &= a_{n-1} \\ \beta_n - \beta_{n-1} \xi &= a_n \end{aligned}$$

bundan

$$\begin{aligned} \beta_0 &= a_0 = b_0 \\ \beta_1 &= a_1 + \beta_0 \xi = b_1 \\ \beta_2 &= a_2 + \beta_1 \xi = b_2 \\ &\dots\dots\dots \\ \beta_{n-1} &= a_{n-1} + \beta_{n-2} \xi = b_{n-1} \\ \beta_n &= a_n + \beta_{n-1} \xi = b_n \end{aligned}$$

shu bilan yuq'orida q'abul q'ilgan tahminimiz isbotini topdi.

Shunday q'ilib (3) – formulalar yordamida bo'lish amalini bajarmasdan,

$Q(x)$ bo'linma koeffitsientlarini va q'oldiq' $R(\xi)$ ni topish mumkin. Ushbu hisoblarni Gorner shemasi deb ataladigan shema bo'yicha bajariladilar:

$$\frac{\begin{array}{c} a_0, \quad a_1, \quad a_2, \quad \dots \quad a_n \\ + \\ b_0 \, \xi \quad b_1 \, \xi \quad \dots \quad b_{n-1} \, \xi \end{array}}{b_0 \quad b_1 \quad b_2 \quad \dots \quad b_n = P(\xi)} \quad \vdash \, \xi$$

Misol . $P(X) = 3x^3 + 2x^2 - 5x + 7$ polinom q'iymatini $H=3$ da hisoblang:

$$\begin{array}{r}
 3 \quad 2 \quad -5 \quad 7 \\
 + \qquad \qquad \qquad \text{\tiny L } 3 \\
 9 \quad 33 \quad 84 \\
 \hline
 3 \quad 11 \quad 28 \quad 91 = P(3)
 \end{array}$$

Gorner shemasi bo'yicha hisoblash algoritmini va Pascal dasturlash tilida tuzilgan dastur kodini keltiramiz:

$a(0), \dots, a(n)$ koefitsientlarga ega n – darajali ko'pHad berilgan bo'lsin. Bu ko'phadni Gorner shemasiga binoan berilgan nuq'tada hisoblash q'uyidagicha bajariladi. Polinomni R desak, unda R polinom Gorner shemasi bo'yicha $S=(\dots((a(0)*H+a(1))*H+a(2))*H+\dots)*H+a(n)$ ko'rinishga keltirilidi. Demak hisoblash jarayoni $P:=a(i)$ ni kerakli marotaba H ga ko'paytirishdan va $a(i)$ ni q'o'shishdan iborat bo'ladi.

Gorner shemasi bo'yicha polinom q'iymatini hisoblash uchun Pascal dasturlash tilida tuzilgan dastur kodini keltiramiz:

Bunda n polinom o'zgaruvchilarining darajasi, $a[i]$ – koeffitsientlari.

Program Gor; Const n=10;

Var a:array [1..n] of real;

P,x : real; I : integer;

```
begin    read(x);
```

```
for i:=1 to n do read(a [i]);
```

```

P:=a(0); for i:=1 to n do P:=P*x + a[i];
write ('P=', P)
end.

```

Tayanch so'zlar Va iboralar

Ko'pHad, ko'pHad darajasi, iteratsiya, iteratsion jarayon, GornersHemasi, q'oldiq', ko'pHad q'oldiq'lari.

Nazorat savollari

1. Ko'pHad nimalari bilan beriladi?
2. Ko'pHad darajasi q'anday aniqlanadi?
3. Ko'pHadlarni Hisoblashda iteratsion Hisoblash jarayoni nimadan iborat?
4. GornersHemasining aniqligi?
5. GornersHemasi bilan Hisoblashda ko'pHad q'oldiq'lari Hisoblanishi

MA'RUZA - 3

Algebraik Va transtsendent tenglamalar echimlarini taq'ribiy usullar bilan topish. Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usuli. Algoritmlar

Algebraik Va transtsendent tenglamalar echimlarini taq'ribiy usullar bilan topish.

CHiziq'li tenglamalar. CHiziq'siz tenglamalar.

Taq'ribiy echim tushunchasi

Taq'ribiy echim joylashgan oraliq'ni ajratishning analitik Va geometrik usullari.

Taq'ribiy echim maVjudlik sharti

Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usuli

Algoritmlar

1. Chiziq'siz tenglamalar haq'ida umumiy ma'lumotlar.

Odatda tenglamalarni ularda q'atnashayotgan noma'lumlarning q'aerda joylashganligiga q'arab turli sinflarga ajratiladi;

- *chiziq'li tenglamalar;*
- *kvadrat tenglamalar;*
- *kubik Va yuq'ori darajali tenglamalar;*
- *trigonometrik ko'rsatgichli, irratsional, logarifmik, darajali tenglamalar;*
- *VaH.z.*

CHiziq'li tenglamadan tashq'ari barcha sinflarga tegishli tenglamalarni q'isq'acha q'ilib chiziq'siz tenglamalar deb ataladi.

CHiziq'siz tenglamalarni echishning umumlashgan usuli maVjud Emas. Har bir sinfga tegishli tenglamalar o'ziga Hos usullar bilan echiladi. Hatto ba'zi bir o'ta chiziq'siz tenglamalarning echimlarini analitik usulda aniq'lash imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

Hozirgi paytda chiziq'siz tenglamalarni echish uchun oldingi o'ringa sonli-taq'ribiy usullar chiq'ib oldi. Bu usullar o'zlarining umumlashgani, tenglamani etarli aniq'likda echa olishi bilan ajralib turadi. SHuning uchun chiziq'siz

tenglamalarni echishning sonli-taq'ribiy usullari uchun dastur ta'minotlarini yaratilishi muhim Va aktual masala hisoblanadi.

CHiziqli tenglamalardan na'munalar:

1. $x^3 - 3x^2 + 7x - 6 = 0$
2. $x^2 - \sin x = 0$
3. $\ln |7x| - \cos 6x = 0$
4. $e^{2x} - x = 0$

1. Matematikada tenglamalar chiziqli, algebraik, trigonometrik, ko'rsatkichli kabi guruhlariga bo'linadi. Oliy matematikada yana differentsial Va integral tenglamalar paydo bo'ladi. Nochiziqli tenglamalar turli amaliy masalalarni echishda o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Masalan, klassik bo'lib ketgan berilgan burchakni uchga teng bo'lish masalasi ushbu formulaga asosan kubik tenglamaga olib keladi:

$$a = c \cos(x) = 4 \cos^3\left(\frac{x}{3}\right) - 3 \cos\left(\frac{x}{3}\right).$$

Agar $\cos\left(\frac{x}{3}\right) = y$ desak q'uyidagi tenglamani olamiz:

$$4y^3 - 3y - a = 0.$$

u erda $a = \cos(x)$.

Ikkinchi masala sifatida berilgan b hajmli kubdan hajmi ikki marta katta kub topilsin degan masalani q'araylik. RaVshanki, kubning q'irrasini H desak q'uyidagi oddiy kubik tenglamaga kelamiz:

$$x^3 = 2b.$$

Uchinchi masala sifatida $x = \sqrt{3} - \sqrt{2}$ sonini nimaligini bilmoq'chimiz. U holda ikki marta kVadratga ko'tarish ushbu tenglamaga olib keladi:

$$x^4 - 10x^2 + 1 = 0.$$

To'rtinchi misol sifatida, $X''(x) + \lambda^2 X(x) = 0, X'(0) = 0, X'(l) + hX(l) = 0$, chegaraViy masalani q'araylik. RaVshanki, ushbu funktsiya $X = \cos(\lambda x)$ tenglamani Va birinchi chegara shartni q'anoatlantiradi. Ikkinchi chegara shart

q'anoatlanishi uchun $-\lambda \sin(\lambda l) + h \cos(\lambda l) = 0 \Rightarrow \operatorname{tg}(\lambda l) = h / \lambda$, bo'lishi kerak. Yana nochiziq' tenglamaga keldik: $\operatorname{tg}(\lambda l) = h / \lambda$.

Bunday misollarni ko'pdan ko'p keltirish mumkin. Masalan, q'urilish mehanikasida ham chiziq'li iHtiyoriy no'malumli tenglamalar sistemasini Va iHtiyoriy darajadagi algebraik tenglamani hosil q'ilish mumkin.

Abel, Galua nazariyasidan ma'lumki 5 Va undan yuq'ori darajali tenglamalarning echimlarini formulalar yordamida aniq' topish mumkin emas. Boshq'a nochiziq' tenglamalar Va ularning sistemalari ham taq'ribiy echiladi.

Ba'zi bir ta'rif va teoremlarni keltiramiz. $y = f(x)$ funktsiya $[a, b]$ da aniq'langan Va uzluksiz bo'lsin. $f(x) = 0$ tenglikni q'anoatlantiruvchi $x \in [a, b]$ nuq'ta $f(x) = 0$ tenglamani echimi yoki ildizi deyiladi.

Teorema 1. Agar $f(x) \in C[a, b], f(a)f(b) < 0$ bo'lsa, $[a, b]$ da $f(x) = 0$ tenglamani hech bo'lmaganda bitta echimi bor. Agar $f(x) [a, b]$ da monoton bo'lsa (masalan, $\operatorname{sign} f(x) = \operatorname{const}$) bu echim yagona.

$f(x) = 0$ tenglama echimlarini topish 2 ta bosq'ichdan iborat bo'ladi.

1) ildizlarni ajratish, ya'ni ildizlar soni, ular joylashgan oraliq'larni aniq'lash;

2) ajratilgan ildizlarni oldindan berilgan aniq'lik bilan topish.

Ildizlarni ajratish uchun **grafik** yoki **analitik usul** (teorema (1.)) ishlatilishi mumkin. Grafik usulda $y = f(x)$ funktsiya grafigi chizilib ildiz joylashgan oraliq'lar topiladi. Analitik usulda shunday $[a_k, b_k]$ kesmalar topiladiki, $f(a_k)f(b_k) < 0$ bo'lsin.

Ajratilgan ildizlarni berilgan aniq'lik bilan topish uchun kesmani ikkiga bo'lish, iteratsiya, Nyuton usullaridan foydalaniladi.

2. Ildizlarni ajratish.

2.1. Geometrik usul.

Agar mumkin bo'lsa $y = f(x)$ funktsiya grafigi chiziladi. So'ng grafikdan ildizlar soni Va ular yotgan oraliq'lar aniq'lanadi. Agar $y = f(x)$ funktsiyaning grafigini chizish mumkin bo'lmasa $f(x) = 0$ tenglama EkViValent $f_1(x) = f_2(x)$

($f = f_1 - f_2$; f_1 Va f_2 -funktsiyalar) ko'rinishga keltiriladi Va $y_1 = f_1(x)$ Va $y_2 = f_2(x)$ funktsiyalar grafiklari chiziladi. RaVshanki, bu grafiklar kesishgan nuq'talarning abtsissalari tenglamaning echimlari bo'ladi.

Misol 1. $f(x) = x - \cos(x) = 0, x \in (-\infty, +\infty)$ tenglamaning ildizlari ajratilsin.

Echish. Tenglamani $x = \cos(x)$ ($f_1(x) = x, f_2(x) = \cos(x)$) ko'rinishga keltirib $y_1 = x, y_2 = \cos(x)$ funktsiyalar grafigini chizamiz. CHizmadan yagona ildiz $[0, \pi/2]$ kesmada yotganini ko'rish mumkin.

Misol 2. $x^4 - 4x + 1 = 0, x \in (-\infty, +\infty)$ tenglama ildizlari ajratilsin.

Echish. Tenglamani $x^4 = 4x - 1$ ko'rinishda yozib

$$\begin{cases} y_1 = x^4, \\ y_2 = 4x - 1 \end{cases} \text{ funktsiyalarning grafigini chizamiz.}$$

Tenglamaning ikkita haq'iq'iy ildizi bor: $x_1 \in [0, 1], x_2 \in [1, 2]$, chunki

$$f(0) = 1 > 0, f(1) = -2 < 0, f(2) = 9 > 0.$$

2.2. Analitik usul. Ildizlarni analitik usulda ajratish uchun asosan, 1.2.1 teoremadan foydalanamiz. Funktsiyaning aniq'lanish sohasini bo'laklarga bo'lamiz. Bu bo'laklardan chekkalarida ishoralari har Hil bo'lganlarini ajratamiz. Agar bu kesmada funksiya monoton bo'lsa ildiz yagona. Masalan, $f(x) = x - \cos x = 0$ tenglama uchun $f(0) = -1 < 0, f(\pi/2) = \frac{\pi}{2} > 0$ ya'ni $[0, \frac{\pi}{2}]$ da ildiz bor; $f'(x) = 1 + \sin > 0$ ligi uchun ildiz yagona.

$f(x) = x^4 - 4x + 1$ tenglama uchun $f(0) = 1 > 0, f(1) = -2 < 0, f(2) = 9 > 0$, ya'ni $[0, 1], [1, 2]$ kesmalarda ildizlar bor.

$f'(x) = 4x^3 - 4 = 4(x^3 - 1)$ hosila $[0, 1]$ da manfiy, $[1, 2]$ da musbatligi uchun $[0, 1], [1, 2]$ kesmalardagi ildizlar yagona.

Echish usullari:

1. Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usuli Va uning ishchi algoritmi

Endi chiziq'siz tenglamani taq'ribiy echishning oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usulini ishchi algoritmi bilan to'liq'roq' tanishib chiq'aylik.

(1) tenglamaning E aniq'likdagi (E-o'ta kichik son, echimni topish aniq'ligi) taq'ribiy-sonli echimini (a;b) oraliq'da topishni q'uyidagi algoritm bo'yicha tashkil q'ilamiz:

1. Berilgan (a;b) oraliq'ni o'rtasini aniq'laymiz.

$$C = \frac{a+b}{2}$$

2. Echimni [a;c] yoki [c;b] oraliq'daligini

$$f(a) \cdot f(c) < 0$$

shartidan foydalanib aniq'laymiz.

3. SHartni q'anoatlantiradigan oraliq'ni yangi oraliq' sifatida olamiz Va uni yana teng ikkiga bo'lib, yuq'oridagi amallarni yana takrorlaymiz.

4. Odatda tenglamaning taq'ribiy echimini birorta aniq'lik bilan topish so'raladi. Demak δ aniq'lik berilgan bo'lsa, oraliq'ni bo'lish jarayonining Har bir q'adamida $|b-a| < \delta$ shart bajarilishi tekshiriladi. SHart bajarilganda oraliq'ninig o'rta nuq'tasi H^* , δ aniq'lik bilan topilgan taq'ribiy echim sifatida q'abul q'ilinadi.


Hulosa q'ilib aytganda, biz tanlab olayotgan kesmalarda tenglamaning taq'ribiy ildizi yotadi. Demak, kesmalarni toraytirib borar Ekanmiz.

Natijada, q'andaydir q'adamdan so'ng tenglamaning aniq' yoki talab q'ilingan aniq'likdagi taq'ribiy ildizini hosil q'ilamiz

YAngi oraliq' uchun yuq'oridagi ishlarni q'ayta takrorlaymiz Va buni oraliq' uzunligi δ -dan kichik bo'lmaguncha daVom Ettiramiz. OHirgi oraliq'dagi iHtiyoriy nuq'tani tenglamaning taq'ribiy echimi sifatida q'abul q'ilish mumkin.

Tanishib chiq'q'an algoritm bo'yicha biror dasturlash tilida dastur tuzishdan aVVal masalani echish algoritmini blok-sHema orq'ali ifodalab olamiz.

**Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usuli algoritmini
B l o k - s H e m a bilan ifodalanishi**



Oraliq'ni teng ikkiga bo'lish usulini Pascal dasturlash tilida yozilgan dastur kodi

```
program ikkigabolish;
var a,b,x,eps,e,ra,rx,y:real;k:integer;
function f(x:real):real;
begin f:=x-cos(x);end;
function sign(x:real):integer;
